

SANOAT JARAYONLARINING ATROF-MUHITGA TA’SIRI

Karimjonov Qilichbek Alimardon O’g’li

Talaba. Farg’ona Politexnika institute, Farg’ona shahri

Annotatsiya: *Atrof muhitni muhofaza qilish davr talabi hisoblanadi.*

Har-xil zararli chiqindilar va zavod va fabrikalardan chiqayotgan zaharli gazlar bevosita tirik organizmlarga zining salbiy ta sirini ko'rsatmoqda. Tabiatni toza saglash va chiqindisiz texnologiyani yo'lga qo yish hozirgi davrning eng dolzarb masalalari hisoblanadi.

Kalit so zlar: seysmologiya, onkologiya, texnologik jarayonlar, zaharli gazlar

СПОСОБЫ УТИЛИЗАЦИИ ОТХОДОВ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ ДЛЯ ЗАЩИТЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Аннотация: *Защита окружающей среды - это требование времени. Любые вредные выбросы и токсичные газы, возникающие на фабриках и заводах, напрямую влияют на живые организмы. Самыми насущными проблемами современного периода являются сохранение чистоты природы и производство технологии свободной от отходов.*

Ключевые слова: *сейсмология, онкология, технологические процессы, токсичные газы.*

METHODS OF INDUSTRIAL WASTE DISPOSAL TO PROTECT THE ENVIRONMENT

Abstract: *Environmental protection is a requirement of time. Any harddous emissions and toxic gases emerge from plants and factories have a negative impact on alive organisms. The most up-to-date issues of the modern century are the preservation of natwe and the creation of technology without waste.*

Key words: *seismology, oncology, technological processes, toxic gases*

KIRISH

Ekologik muammolar XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmogda. Insoniyat, hayvonot dunyosi va o'simliklarning kundalik hayoti, bevosita atrof-muhit bilan o'zaro munosabatiga bog'liq. Biz yashab kelayotgan



Yer sayyorasi bir qarashda necha-necha milliard yillardan beri o'zgarishsiz mavjud bo'lib, uning o'lchamlari ham cheksizdek, har-xil mintaqalar alohida-alohida joylashgan va ularning bir-biriga aloqasi go'yoki yo'qdek turiladi. Aslida esa hammasi butunlay boshqacha. Taassufki, kundalik va deyarli har qadamda ekologik muhitning mayda yoki yirik miqyosda qo'pol buzilayotganiga guvoh bo'lamiz. Jamiyatimizdagi ko'pchilik insonlar o'ta madaniyatli, ozoda va tartibli. Ularning yurish-turishi, yuksak odob-axloqi va madaniyatini ko'rib faxrlanasan, kishi. Ota-bobolarimizdan meros yuksak ma'naviyatning munosib vorislari bo'lishga hamisha intilib yashaymiz. Biroq guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, jamiyatimizda ayrim kimsalar borki, ularning yurish-turishi, qilayotgan ishlarini ko'rib beixtiyor yoqa ushlaysan. Ko'cha va maydonlarning ko'plab joylariga chiqindi tashlab ketuvchilar, odam gavjum bekatlarda tamaki chekish, pista chaqish, duch kelgan qog'oz-lattalarni yerga tashlash kabi salbiy illatlarga duch kelamiz. Ayniqsa, yirik suv havzalariga tashlanayotgan chiqindilarning son-sanog'i yo'q. Shunga o'xshash mayda-chuyda narsalar ekologiyani qo'pol buzilishiga sabab bo'ladi. Ekologiyani yaxshilash choralarini faqat atrof-muhitni muhofaza qilish uchun mas'ul shaxslar emas, balki barcha birgalikda o'ylashi va maqbul ish tutishi darkor. Axir gap o'z sog'lig'imiz va hayotimiz to'g'risida ketmoqda. Yuqorida aytilgan salbiy odatlar va omillarni inson o'z qo'li bilan bartaraf etishga qodir sanalsa-da, ekologik barqarorlikka muntazam xavf soluvchi ayrim tabiiy ofatlar ham borki, insoniyat ularni hech qachon bartaraf eta olmaydi. Faqatgina chuqur ilmiy tadqiqotlar orqali oldindan xabardor bo'lish imkoniga ega bo'lamiz xolos. Shunday tabiiy ofatlardan biri sanaluvchi zilzilani har tomonlama o'rganib boruvchi seysmologiya ilmining ekologiya bilan bog'liq ayrim jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, keyingi yillarda seysmik xavf-xatarni baholashning yangi yo'nalishi tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Ya'ni birorta joyda zilzila sodir bo'lishi kutilsa, endi undan ko'riladigan zararni oldindan hisoblab chiqish imkoni mavjud. Bu jarayonda deyarli barcha omillar: joylarning muhandis-geologik sharoiti, imoratlarning hozirgi holati, yer osti va ustidagi turli kommunikatsiya tizimlarining joylashuvi, aholi zichligi va boshqa ma'lumotlar hisobga olinadi. Bu ehtimoliy zilzila xavfining oldini olish va zararli oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

Kimyoviy moddalar tavsifnomasi. Inson, qolaversa barcha jonivorlar olami yashayotgan atrof muhit, tabiiy hodisalar, jumladan vulqonlar, zilzila, metioritlar tushishi, to'fon, dovul, yong'inlar, qurg'oqchilik, shuningdek bevosita inson faoliyatlari natijasida atrof muhit ifloslanishi kuzatiladi. Atrof muhitni tabiiy va antropogen ifloslanishi asosan kimyoviy moddalar ishtirokida kuzatiladi. Insonning tabiatga etkazgan salbiy ta'siri



natijasi fan-texnika inklobi davrida, ayniqsa, avj oldi. Ilmiy texnika yutuqlari asosida zavod va fabrikalar rivojlanishi, qishloq xujaligining tiklanishi xalq xujaligining o'sishiga olib kelishi bilan bir qatorda tabiiy boyliklarining isrof bo'lishiga, chiqindilar bilan atrof-muhitni ifloslanishiga olib keldi.

Atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalar asosan kimyoviy moddalar hisoblanadi. Ularni biz asosan ikki katta guruxga bo'lamiz: atrof-muhitni ifloslantiruvchi kimyoviy moddalar va kimyo sanoati korxonalarini tamonidan ishlab chiqariladigan kimyoviy preparatlar.

Hozirga qadar er qaridan 100 mlrd. tonnadan ortiq ko'mir, neft, torf kabilar qazib olingan. Ularning yoqilg'i sifatida ishlatilishi natijasida 3,8 mlrd. tonna kul, chang atmosferaga tarqalgan. Shu kul va chang bilan birgalikda 1,9 mlrd. mish'yak, va 1,2 mlrd. tonna zaxarli surma, sink, 68 mln t. rux, 4 mln t. qurg'oshin, kadmiy 20-22 ming t., nikel 50 ming t., ftor 4 ming t., fosfor (R_2O_5) 35 mln t., smob 15-48 ming t., pestisidlar 3.2 mln t., polixlorbifenil 500 ming t., benzopiren 8 ming t., ftor uglevodorodlari 710 ming t., mis: atmosferaga 65 ming t.; qattiq chiqindi sifatida 80 ming t.; 100 ming t. o'g'it sifatida tabiatga ya'niy havo, tuproq va suvga tushgan. havo, tuproq va suvga tashlanmoqda. Bu esa o'z navbatida tabiatdagi moddalar harikati natijasida deyarli barcha hayot muhitlarida to'planadi va tabiiy muvozanatni izdan chiqishiga olib keladi.

Paxtani dastlabki qayta ishlash, tashish, quritish, tozalash, jinlash, linterlash, ishlab chiqarishning tolali chiqindilarini qayta ishlashda ishlab chiqarish binolari havosiga va atmosferasiga ko'p miqdorda chang ajralib chiqadi. Chang asosan 3 ta fraksiyadan iborat: iflos zarrachalar – g'o'zaning maydalangan bo'laklar; tolali va mineral zarrachalar (mineral zarrachalar paxtaga tuproq orqali o'tadi); paxtani qayta ishlash vaqtida undan ajralib chiqadigan changning iflos va tolali zarrachalaridir. Uskunalardan, ikkinchisi – changlantirish sistemalaridan chiqadi Atmosferaga chiqariladigan barcha ishlangan havo texnologik va aspirasion turga bo'linadi: birinchisi – texnologik mashina-. Paxta, tola, lint va ishlab chiqarish chiqindilari havo transporti – paxta tozalash zavodidagi ishlangan havoni chiqarish bo'yicha asosiy uchastka hisoblanadi. Quritish-tozalash, jinlash, linterlash va tolali chiqindilarni qayta ishlash sexida anchagina miqdorda chang bo'ladi. Paxta tozalash korxonasida texnologik davomida ajralib chiqadigan chang tarkibi o'zgarib boradi. Paxtani dastlabki qayta ishlash jarayonining boshlanishida havo tarkibida ko'p miqdorda mineral fraksiyalar bo'lgan chang ajralib chiqadi. Paxtani keyingi ishlov berishlarda – tola va lint olishda ajralib chiqadigan changda organik moddalar ko'proq bo'ladi: bular chigit qobig'i, barg bo'laklari va g'o'zaning boshqa qismlari, shuningdek tolali bo'lakchalardir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Wittorf N. v., Z. Anorg. Allgem. Chem. , 41-, 85-betlar (1904).
2. Bilthz V., Fischer V., Wünnemberg E., Z. Anorg. Allgem. Chem., 193-, 355-betlar (1930)
3. Daniels F., Bright A., C., J. Am. Kimyo. Soc., 42-, 1131-betlar (1920).
4. Noorganik sintez bo'yicha qo'llanma Muallif: N.G.Klyuchnikov
Nashriyot: "Ximiya" Nashr qilingan yili: 1965 511-514 bet.
5. WWW.COM.SAVOL-JAVOB.COM

